

YETIM BOLALAR VA OTA-ONA QARAMOG‘IDAN MAHRUM BO‘LGAN BOLALARGA PSIXOLOGIK XIZMAT KO‘RSATISH

Berdiyeva Dilbar Bektemirovna

Qashqadaryo viloyati Yakkabog‘ tumani

“Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi Psixologi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada ota-onasiz qolgan va qarovsiz bolalarga psixologik yordam ko‘rsatishning mohiyati, uning ijtimoiy ahamiyati hamda samarali yo‘nalishlari yoritilgan. Bolalarning hissiy rivojlanishi, jamiyatga moslashuvi va ruhiy barqarorligini qo‘llab-quvvatlashda psixologik xizmatning o‘rni tahlil etiladi hamda amaliy yechimlar taklif qilinadi.

Kalit so‘zlar: yetimlik, psixologik qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy moslashuv, emotsional rivojlanish, rehabilitatsiya.

Jamiyat farovonligining asosiy omillaridan biri – sog‘lom va barkamol avloddir. Ota-ona qaramog‘idan mahrum qolgan bolalar ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamni tashkil etadi. Bunday bolalarda emotsional bo‘shliq, ijtimoiy muloqotdagi qiyinchiliklar, o‘ziga ishonchsizlik kabi muammolar kuzatiladi. Shu bois, psixologik xizmatni samarali tashkil etish ularning hayotida muhim ahamiyat kasb etadi.

Yetim bolalarning psixologik muammolari quydagilarda namoyon bo‘ladi:

- Ota-ona mehridan chetda o‘lish ruhiy jarohatlarga sabab bo‘ladi.
- Hissiy beqarorlik, yolg‘izlik va qo‘rquv hissi kuchayadi.
- Tengdoshlari bilan muloqotda tortinchoqlik yoki agressiv munosabatlar kuzatilishi mumkin.
- Mehr-e’tibor yetishmasligi shaxsiy kamolotga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum qolgan bolalarni qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy himoya qilish masalasi har qanday davlat va jamiyatning eng ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Chunki bunday toifadagi bolalar hozirgi zamon global muammolari qatorida eng dolzarb masalalardan biri sifatida qaralmoqda. Ijtimoiy yetimlik darajasining ortishi, bolalarning e’tiborsiz qolishi, oilalarda yuzaga kelayotgan ichki inqirozlar, demografik muammolar va iqtisodiy beqarorlik bu jarayonni yanada kuchaytirmoqda. Shu bois, turli mamlakatlarda siyosiy-ijtimoiy hayotda yuz berayotgan o‘zgarishlar natijasida qiyin sharoitga tushib qolgan bolalar soni tobora oshib bormoqda.

Bunday toifaga turli guruhlar kiradi: ota-onasidan ayrilgan yetimlar, ijtimoiy jihatdan nochor bolalar, huquqbuzarlikka moyil yoshlar, nogiron bolalar, qochoq bolalar hamda ekologik xavfli hududlarda yashashga majbur bo‘lgan voyaga

yetmaganlar. Ularning psixologik va ijtimoiy rivojlanishi jamiyat tomonidan alohida e'tibor talab etadi.

Mehribonlik uyida tarbiyalangan bolalar bilan oilada ulg'aygan bolalar o'rtasida sezilarli farqlar mavjud. Ko'pincha oilada tarbiya topgan bolalarda hissiy va irodaviy jihatdan barqarorlik, axloqiy qadriyatlarga sodiqlik, maqsad sari intilish kabi ijobiy xususiyatlar kuchliroq bo'ladi. Bu esa bejiz emas, chunki insonning shaxs sifatida shakllanishida bolalik davri hal qiluvchi bosqich hisoblanadi. Mazkur davrda bola psixologik mustahkamlikni, ijtimoiy moslashuvchanlikni, hayotiy tajriba va qadriyatlarni egallaydi.

Biroq oiladan tashqarida, xususan, mehribonlik uylarida ulg'aygan bolalarda shaxsiyat shakllanishi o'ziga xos hissiy muammolar bilan kechadi. Ular orasida ishonchsizlik, tajovuzkorlik, past empatiya, asabiylik, o'jarlik, sabrsizlik, shafqatsizlik, dushmanlik kabi salbiy ko'rinishlar tez-tez uchraydi. Bundan tashqari, nevrotik holatlar, ruhiy stress belgilari va boshqalar ham ularda ko'proq kuzatiladi. Bunday jihatlar bola shaxsiyatining keyingi bosqichlarda jamiyatga moslashuvi va ijtimoiy munosabatlarini murakkablashtirishi mumkin.

Shu bois, yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar uchun ijtimoiy-psixologik xizmatlarni rivojlantirish, ularning ruhiy dunyosini qo'llab-quvvatlash va jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiya qilish masalasi bugungi kunda dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Psixologik xizmatning asosiy vazifalari esa quydagilardan iborat:

1. Yetim va qarovsiz bolalarni qo'llab-quvvatlash psixologik xizmatning quyidagi yo'nalishlari orqali amalga oshiriladi:
2. Ruhiy tayanch berish – bolaning hissiy ehtiyojlarini qondirish, mehr va ishonchni shakllantirish.
3. Jamiyatga moslashtirish – ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish va ijobiy muhitda faoliyat yuritishga ko'maklashish.
4. Shaxsiy rivojlanishni ta'minlash – mustaqil fikrlash va o'zini qadrlash hissini kuchaytirish.
5. Stressni yengishga yordam berish – art-terapiya, psixodrama va treninglar orqali travmatik tajribalarni kamaytirish.

Ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarning hayotiy holati nafaqat ularning shaxsiy rivojlanishiga, balki jamiyatning ijtimoiy barqarorligiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bunday bolalarda ko'pincha tajovuzkorlik, g'azab, qayg'u, asabiylik, e'tibordan chetda qolish hissi, o'ziga ishonchsizlik va boshqa salbiy kechinmalar kuzatiladi. Ushbu omillar vaqt o'tishi bilan ularning jamiyatdagi huquqiy, axloqiy, ma'naviy va ijtimoiy normalarga moslashuviga salbiy ta'sir etib, ba'zi hollarda me'yorlarni buzishga moyillikni kuchaytirishi mumkin.

Bolalar uyidagi muhit ko‘pincha shaxsiy erkinlikni cheklashi, majburiy jamoaviylikni talab qilishi bilan ajralib turadi. Natijada bola o‘zining fiziologik hamda psixologik rivojlanishida turli ichki qiyinchiliklarga duch keladi. Bu holat ularning hissiy barqarorligi va shaxsiy fazilatlariga jiddiy ta’sir o‘tkazishi mumkin.

Mazkur muammolarni yumshatish va bolalarning jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyasini ta’minlash uchun ijtimoiylashuv jarayonini to‘g‘ri tashkil etish muhimdir. Bu borada quyidagi bosqichlar alohida ahamiyatga ega:

Ijtimoiy moslashuvni rivojlantirish – bola mavjud ijtimoiy munosabatlar tizimiga moslasha olish ko‘nikmalarini egallashi zarur;

Salbiy ijtimoiy ta’sirlarni kamaytirish – bolaning shaxsiy xususiyatlari saqlab qolinishi va uni buzuvchi tashqi omillar cheklanishi lozim;

Murakkab vaziyatlarda o‘zini-o‘zi namoyon qilishni qo‘llab-quvvatlash – bola ijtimoiy faoliyatda ishtirok etish, o‘z fikrini bildirishi va o‘zini jamiyat a’zosi sifatida his qilishi uchun imkoniyat yaratish.

Mazkur jarayonda nafaqat mehribonlik uylari va maxsus muassasalar, balki xalqaro tajribaga asoslangan tashkilotlar, jumladan, SOS Bolalar mahallalari kabi institutlarning faoliyati ham katta ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, ijtimoiy moslashuv jarayoni kompleks xarakterga ega bo‘lib, unda fiziologik, psixologik, pedagogik, iqtisodiy va professional moslashuv bosqichlari birgalikda amalga oshiriladi.

Psixologik yordamni quydagicha ko‘rsatishi mumkin:

- Individual suhbatlar – bolaning shaxsiy muammolarini tahlil qilish va yechim topishga yo‘naltirish.
- Guruhiy mashg‘ulotlar – muloqot va do‘stona munosabatlarni rivojlantirish.
- Ijtimoiy loyihalar – bolalarda jamiyatga keraklilik hissini uyg‘otish.¹

Xulosa qilib aytganda, ota-ona qaramog‘idan mahrum qolgan bolalar uchun psixologik xizmat – ularning kelajagini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Moddiy yordam bilan bir qatorda ruhiy qo‘llab-quvvatlash ularning to‘laqonli shaxs sifatida shakllanishida beqiyos ahamiyat kasb etadi. Shu bois, bunday bolalarni qo‘llab-quvvatlashda psixologik xizmatni yanada takomillashtirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimova V. “Psixologik xizmat asoslari”. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019.
2. Nurmuhamedova N. “Bolalar psixologiyasi”. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
3. Ergashev B. “Ijtimoiy psixologiya”. – Toshkent: Ilm ziyo, 2021.

¹ Ergashev B. “Ijtimoiy psixologiya”. – Toshkent: Ilm ziyo, 2021.